

Turdiyeva Asal Usmonovna

Yakkabog' tumani 49- maktab psixologi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi davrdagi eng katta muammolardan biri zo'ravonlik haqida hamda uning oqibatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Oila, mas'uliyat, ommaviy madaniyat, zo'ravonlik, profilaktika, xotin-qizlar, jinoyat.*

2017– 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida“ notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo'lмаган, “ommaviy madaniyat“ ta'siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda ularning ota-onalari mas'uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste'mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasi“ kabi dolzarb vazifalar nazarda tutilgan. Bu esa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ilg'or ish usullarini joriy etish, huquqbazarliklarni barvaqt aniqlash bo'yicha fuqarolik jamiyatni institutlari bilan samarali hamkorlik tashkil etishni taqozo etadi. Bugungi kunda shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlarning 40 foizi, har to'rtta qotillikning bittasi, qasddan badanga shikast yetkazishlarning har beshtadan bittasi, haqorat qilish va tuhmatning sakkiztadan bittasi aynan oila-turmush sohasida sodir etilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning: “Oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda“ degan fikrlari mavzuning qanchalik dolzarb ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ichki ishlar organlari xodimlari tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishda birinchi bo'g'indan biri bo'lib, xodimlarning malakasi va zo'ravonlik sodir etilgan hollarda amalga oshirilgan dastlabki harakatlari katta ahamiyatga egadir. Zo'ravonlikdan jabrlangan ayolning profilaktika inspektori davlat himoyasini ta'minlay berishiga bo'lgan ishonchiga kelgusi harakatlari bog'liq. Zo'ravonlikdan erkaklar ham jabrlanishi mumkin, lekin xotin-qizlarning zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqoriligi, zo'ravonlik turlari, og'irlik darajasi va kelib chiqadigan oqibatlar keskin farqlanishini inobatga olgan holda, so'nggi islohotlar aynan ularni himoya qilishga qaratilgan. Bugungi kunda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish borasida jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlardan ratifikasiya qilindi. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo'ravonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo'ravonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo'yilgan. Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklarasiyasi, fuqarolik va siyosiy

huquqlar bo'yicha xalqaro kelishuv hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi hamda shaxsni oiladagi zo'ravonliklardan himoya qiladi. Milliy qonunchiligidizda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvorlik kasb etadi.

Butun dunyo xalqlari kabi biz ham koronavirus infeksiyasining tarqalishi bilan bog'liq sinovli kunlarni boshimizdan kechirmoqdamiz. Albatta sabr-qanoatli xalqimiz ushbu kunlarni matonat bilan yengib chiqishiga barchamiz ishonamiz. Shu kunlarda xalqimizning o'zaro xurmat, mexr-oqibatining naqadar yuksak darajada ekanligini yana bir bor guvohi bo'lmoqdamiz. Karantin sharoitida ayrim oilalarda yuzaga kelgan moddiy yetishmovchilik holatlarini chetlab o'tishda saxovat va ko'mak jamoatchilik jamg'armasi tomonidan oziq-ovqat maxsulotlari va pul mablag'larining tarqatilayotganligi bиринчи navbatda oila bekasi bo'lgan ayollarimizni qo'llab-quvvatlashning amaliy ifodasi bo'lmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ammo bugungi kunda jamiyatimizda uchrab turayotgan bir noxush holat borki uni bartaraf etishda barchamiz birlashishimiz lozim. Bu ham bo'lsa xotin-qizlar va bolalarning zo'ravonlik va tazyiqqa uchrashishini oldini olish, aytish lozim bo'lsa bunday xolatlarga umuman yo'l qo'ymaslikdir.

Bugungi kunda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish borasida jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlar radifikatsiya qilindi. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo'ravonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo'ravonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo'yilgan. Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro kelishuv hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi hamda shaxsni oiladagi zo'ravonliklardan himoya qiladi. Milliy qonunchiligidizda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvorlik kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: "Hech kimning qiyonoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas", deb qayd etilgan.

Davlatimiz rahbarining shaxsiy tashabbuslari bilan so'ngi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilindi.

Shulardan eng asosiysi sifatida mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash maqsadida 2019 yil 2 sentyabr kuni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinganligini aytib o'tishimiz

mumkin. Azaldan erkaklar himoyasida bo‘lgan sharq ayollarining qadr-qimmati hamisha e’zoz-u, e’tirof etilgan. Biroq so‘nggi paytlarda xotin-qizlarni kuchli jins vakillari tomonidan qadrsizlantirish, ularga tazyiq o’tkazish, zo‘ravonlik qilish holatlari ham afsuski ko‘plab kuzatilmoqda.

Ayol ojiza, biroq kuchli, ayol zaifa, ammo irodali! Uning irodasi oldida lozim bo‘lsa buyuklar bosh egadi. Azaldan erkaklar himoyasida bo‘lgan sharq ayollarining qadr-qimmati hamisha e’zoz-u, e’tirof etilgan. Biroq so‘nggi paytlarda xotin-qizlarni kuchli jins vakillari tomonidan qadrsizlantirish, ularga tazyiq o’tkazish, zo‘ravonlik qilish holatlari ham afsuski ko‘plab kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulova T.P. Agressivniy podrostok / T.P. Abdulova. - M.: Akademiya, 2008. - 128 s.\
2. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o 'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.
- 3.<https://tiiame.uz/oz/content/biz-zoravonlikka-qarshimiz>
- 4.[mavzusidahttps://xviib.uz/oz/news/biz-tazyiq-va-zoravonlikka](https://xviib.uz/oz/news/biz-tazyiq-va-zoravonlikka)
- 5.[qarshimizhttps://sirviib.uz/oz/news/biz-zoravonlikka-qarshimiz](https://sirviib.uz/oz/news/biz-zoravonlikka-qarshimiz)